

SHARQ ADABIYOTIDA QUSHLAR OBRAZI “LISON UT-TAYR” VA “QUSHLAR MUNOZARASI” ASARLARI MISOLIDA

Keldiboyeva Zarnigor Xasanboy qizi

FDU filologiya fakulteti

o'zbek tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq adabiyotida qushlar obrazi qanday badiiy va falsafiy mazmun kasb etishi “Lison ut-tayr”, “Qushlar munozarasi” va shu kabi asarlar orqali tahlil qilinadi. Har ikki asarda qushlar timsoli inson ruhiyati, komillik, ilohiy haqiqatga yetishish jarayonining ramzi sifatida talqin etilishi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Sharq adabiyoti, qush obrazi, “Lison ut-tayr”, “Qushlar munozarasi”

Sharq adabiyotida asrlar davomida badiiy tafakkurning yuksak namunalari, ramzlar va majoziy obrazlarga boy asarlar yaratilgan. Ularda tabiat hodisalari, hayvonot va qushlar timsoli orqali insonning ruhiy olami, ma'naviy kamoloti hamda hayotiy tajribasi badiiy ifodasini topgan. Xususan, qushlar obrazi Sharq mumtoz adabiyotining eng faol ramziy timsollaridan biri bo'lib, u ma'rifat, ozodlik, ruhiy poklanish, komillik kabi g'oyalarni ifodalovchi o'ziga xos badiiy timsol darajasiga ko'tarilgan. Ramziy-allegorik qissa va hikoyatlarning tarixiy ildizi miloddan oldingi davrlarga borib taqalsa-da, musulmon Sharq mumtoz adabiyotida qushlar sayri bilan bog'liq ilk asar sifatida Ibn Sinoning “Tayr qissasi” (“Qush qissasi”) risolasi e'tirof etiladi. Risolada qushlar ovchidan qochib, Podshoh huzuriga borganlari hikoya qilinadi. Bu risolaga raddiya tarzida yozilgan Abu Homid G'azzoliyning “Risalat at-tayr” (“Qush risolasi”) asarida esa syujet va kompozitsiya asosan saqlanib qolgani holda asar g'oyasida keskin o'zgarish yuz beradi: qushlar Podshohning ishqida Uning o'zini talab qilib, Oliy dargohga boradilar. Mazkur mavzu yozma adabiyotda ilk bor Fariddin Attorning “Mantiq ut-tayr” asari orqali yaxlit va mukammal syujetga ega bo'lgan badiiy doston holiga keltirildi. Unda syujet chiziqlari qayta ishlanishi bilan birga asarga tolib qushlar va yetakchi qush — Hudhud obrazi kiritildi. Qushlar podshosi nomi Simurg' tarzida o'zgartirildi va ko'pgina hikoyatlar qo'shildi. Natijada, asar hikoyat ichida hikoyat yo'nalishidagi ramziy allegorik doston darajasiga ko'tarildi. Shundan so'ng yuqoridagi asarlar ta'sirida Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” va Nishotiyning “Qushlar munozarasi” asarlari yozildi.

“Lison ut-tayr” Alisher Navoiyning umrining so'nggi pallasida, 1499-yilda yozilgan yirik irfoniy doston bo'lib, hajman 193 bob, 3666 baytdan iborat. Dostonning yozilishi sababi haqidagi bobda berilishicha, bolaligida ustozi yosh Alisherga Qur'oni karim suralarini yodlatish barobarida zehni tez va tab'i ravon

bo‘lishi uchun “Guliston”, “Bo‘ston”, “Mantiq ut-tayr” kabi kitoblarni ham o‘qitib turgan. Bularning orasida ayniqsa, “Mantiq ut-tayr” bo‘lajak shoirga qattiq ta’sir qilib, xayolchan va odamovi bo‘lib qoladi. Ota-onasi bunda, xavotirga tushib, kitobni yashirib qo‘yishadi. Dostonni deyarli to‘liq yod bilgan Alisher endi sevimli kitobini ko‘nglida yashirinchak takrorlab yurishga odatlanadi. “Mantiq ut-tayr” muhabbati uning doimiy hamrohiga aylanadi. Nihoyat, yoshi oltmishga yetganda to‘rt devon va beshta dostoni bilan turkiy she’riyat mamlakatini o‘z tasarrufiga kiritgan mutafakkir shoir bolalikdagi orzusini amalga oshirishga jazm etadi:

Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mam lakatni yakqalam...
Munchakim nazm ichra qildim ishtig‘ol,
Xotirimdin chiqmas erdi bu xayol.
Kim bu daftarg‘a berib tavfiq Haq,
Tarjuma rasmi bila yozsam varaq...
Oltmishqa umr qo‘yg‘onda qadam ,
Qush tilin sharh etgali yo‘ndum qalam.

“Lison ut-tayr” murakkab irfoniy doston bo‘lib, unda Navoiy majoziy obrazlar va ularning ramzli sarguzashtlari orqali obyektiv borliq va ilohiyot haqidagi qarashlarini bayon etadi, shu bilan birgalikda dostonida real hayot lavhalari, kishilarning xatti-harakati, fe‘l-atvoridagi ijobiy va salbiy xususiyatlar ham tasvirlangan. Doston 13 bobdan iborat. Dostonning asosiy qismi bosh qoliplovchi qissa: jahondagi barcha qushlarning yig‘ilib, martaba va fazilatlariga ko‘ra joy talashish voqeasidan boshlanadi. Bu yig‘inda behunar hunarmanddan, iste’dodsiz iste’dod sohibidan o‘zib ketish holatlari, har bir qush o‘zini eng yuqori joyga munosib deb bilishi, boshqalardan o‘zini ustun deb hisoblashi tufayli turli ixtilof va mojarolar paydo bo‘ladi. Shunda ularning munosib o‘rnini belgilab beruvchi bir adolatli podshoga ehtiyoj paydo bo‘lganligini sezgan Hudhud degan qush shunday podshoh borligi, nomi Simurg‘ ekanligi va uning huzuriga bormoqchi bo‘lganlar uzoq va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tishlari zarurligini aytadi. Qushlar Simurg‘ning zoti va sifatidan hikoya qilishni so‘raydilar. Hudhud uning sifoti mingdan oshishi-yu, zotining yagona ekanligini aytadi. Barcha qushlar Semurg‘ huzuriga yo‘l olishadi. Yo‘lda ular: Talab, Ishq, Ma’rifat, Istig‘no, Tavhid, Hayrat, Faqr Fano vodiylarini bosib o‘tishadi. Bu vodiylarda ular turli xil qiyinchiliklarga duch kelishadi. Safar davomida turli xil qushlar, turli xil vaziyatlarda safarni tark etishadi va halok bo‘lishadi. Yakunda Faqr Fano vodiysiga yetib kelgan 30 nafar qush o‘zlarining „Simurg“ ekanligini anglab yetishadi. Ular fano yo‘lini bosib o‘tib, boqiylikka erishadi.

Dostonning syujeti majoziy bo‘lgani kabi, undagi timsollar ham majoziydir. Simurg‘ - Haqqa yetishish timsoli, Hudhud - murshid, piri komil ramzi, qushlar - tariqat yo‘liga kirishga otlangan soliklardir. Navoiy Simurg‘ni eng oliy borliq deb e’tirof etar

ekan, Xudoni olamdan tashqarida emas, balki shu olamning o'zida, butun koinot va mavjudotda mujassamlashgan, har bir kimsa va narsada zuhur etgan oliy moya - substansiya deb tushunadi. Hudhud rahnamoligidagi qushlarning ulug' maqsadi Simurg'ga yetish ekan, bu majoziy mazmun zamirida solikning Haq vasliga yetishish uchun chekkan azob-uqubatlarini anglash mumkin. Dostondagi asosiy g'oyaning ochib berilishida ulardan o'rin olgan turli hajmdagi hikoyatlar asosiy o'rin tutadi. Dostonda 65 ta hikoyat keltirilgan bo'lib, ularning 51 tasi Navoiyning original ijodi bilan bog'liq, qolgani esa Attor dostonidan olingan hikoyatlardir. Hikoyatlarning jami bayt miqdori (1800 baytga yaqin) doston umumiy hajmining teng yarmini tashkil qiladi.

Nishotiyning "Qushlar munozarasi" allegorik-majoziy xarakterga ega bo'lib, 300 misradan iborat. Asarda 14 xil qushning o'zaro bahs-u munozaralari orqali o'sha davrdagi ijtimoiy tuzumga xos illatlar, jaholat, mansabparastlik, manmanlik majoziy shaklda tanqid qilingan, mehnat ahlining kamtarligi ulug'langan. Shoir bahor faslida xushmanzara bog'da ko'pgina qushlarning tortishuvi, bahsini kuzatadi va shu haqda asar yaratish niyati bilan

Do'stlar to'bim imtihon qilayin,

Qushlarning bahsini bayon etayin...

deb, asosiy voqea tavsifiga o'tadi. Asarda, akka, zog', qumri, foxtak, bulbul, to'ti, qirg'ovul, kaklik, qarchig'ay, o'rdak, qashqaldoq, tovu, humo, hudhud kabi 14 qushning o'zaro munozarasi bayon etiladi.

Qish chiqib, hut etti chun tahvil,

Bo'ldi Laklak tamom qushg'a dalil.

Qat' etib yo'lni shahri Qesh keldi,

Sevunub xalq dedi: "Xush keldi!"

Laylak xalq og'zaki ijodida qut-baraka, ezgulik ramzi sifatida ifoda etiladi. Asarda bahor faslining kirib kelishi, laylaklarning uchib kelishi bilan izohlanadi. Navbat bilan qushlar munozarasi (akka, zog', qumri, foxtak, bulbul, to'ti, qirg'ovul, kaklik, qarchig'ay, o'rdak, qashqaldoq, tovu, humo) boshlanadi. Har bir qush kibrga beriladi, o'z xususiyatlarini maqtab, lof urib, bir-birlarini kamsitishadi va o'zlarini barchadan ustun qo'yishadi. Dastlab akka va zog' munozaraga kirishadi. Barcha qushlar faqat o'zlarini barchadan ustun qo'yishganidan so'ng, bulbul hudhudni chaqiradi. Dastlab Hudhud obrazini "Lison ut-tayr" yo'nalishidagi dostonlarga fors tasavvuf adabiyotining yetakchi vakili Farididdin Attor o'zining "Mantiq ut-tayr"iga markaziy qahramon sifatida olib kirdi: "Shoirning mazkur mavzuni rivojlantirishga qo'shgan ulushini belgilovchi omillardan yana biri dostonda Hudhud obrazining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Hudhud asarning yetakchi qahramonlaridan biri bo'lib, asarda tasvir etilgan barcha voqea-hodisalar bevosita uning faoliyati bilan bog'liq holda berilgan. Attor Hudhud obrazini ushbu mavzu doirasiga olib kirar ekan, birinchi galda u haqdagi Sharq folklori va Qur'onda mavjud (XXVII sura 20 oyat)

ayrim tasavvurlarga asoslanadi. “Lison ut-tayr dostonida hudhud qushlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi, ularga pand-nasihat qiluvchi, umumtasavvufiy fikr yurituvchi shayx, pining allegorik obrazi sifatida ifodalangan. Ushbu asarda ham hudhud donishmad va yo‘lboshchi sifatida tasvirlanadi. Hudhud qushlarga bir hikoya ytib beradi. Ya’ni

**Bir kuni tushti ko‘kdin boron,
Ko‘rsakim yer, muhit bepoyon
Munda tushtiyu munfail bo‘ldi,
Tushkaniga base xijil bo‘ldi.
Dedi: – Man munda kimki jo qilsam,
Bahr ila bahs, mojaro qilsam.
Ko‘rgach o‘zini kam o‘shul yomg‘ur,
Sadaf ichiga tushtiyu b.o‘ldi dur.
Hudhud ul dam so‘z“n ado qildi.
Barcha qushlar apga duo qildi.**

Ya’ni bir kuni bo‘ron osmondan yerga tushadi va yerni juda bepoyon ekanligini ko‘radi. U yerga tushganiga hijolat bo‘la boshlaydi va kim bilan majaro qilishni bilmaydi. Sadafni ichiga tushadi va durga aylanadi. Demak inson qachonki, o‘zini anglasa, qalbiga nazar solsa, nafsini jilovlay olsa, qalbidagi sadafni ko‘radi va ko‘ngil ko‘zi ochiladi.

Xulosa qilib aytganda, Sharq adabiyotida qushlar obrazi badiiy tafakkurning ramziy qatlamlaridan biri bo‘lib, u insonning komillik sari intilishlarini badiiy ifodalashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. “Lison ut-tayr” asarida qushlar falsafiy-irfoniy ma’noga ega bo‘lsa, “Qushlar munozarasi” asarida qushlarning bahsi orqali jamiyatning xilma-xil axloqiy fazilatlar va illatlari badiiy tahlil etiladi. Har ikki asarda qushlar insonning ichki olami, ruhiy kechinmalarini aks ettiruvchi timsol sifatida gavdalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev V. Xokisor va Nishotiy.-Samarqand, 1960.
2. Abdullayev V. XVII-XVIII asrlarda Xorazmda o‘zbek adabiyoti. Dok.diss... Samarqand,
3. Sharipov Sh., Alisher Navoiy „Lison ut-tayr“ dostonining genezisi va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, T., 1982;
4. Alisher Navoiy „Lison ut-tayr“, -Toshkent, 1984